



Sun'iy intellekt - milliy iqtisodiyot drayveri sifatida

*Aziza Sultonova,
TDSHU stajyor-o'qituvchisi
Azizasultanova9415@gmail.com*

Annotatsiya

Jamiyat hayotining turli sohalariga o'zining katta ta'sirini ko'rsatayotgan sun'iy intellektning milliy iqtisodiyotlardagi o'rni qanday? Nima uchun dunyoning yetakchi davlatlari san'iy intellekt imkoniyatlarini o'z milliy iqtisodiyotlariga kengroq jalb qilish masalasida o'zaro raqobatlashmoqda? O'zbekistonning ushbu masalalarda tutgan o'rni nimalarda o'z aksini topadi? Mamlakat milliy iqtisodiyotining sun'iy intellekt natijalarini joriy eta borishdagi keyingi istiqbollari qanday bo'ladi? Muallif mazkur maqolasida ushbu masalalar atrofida o'z tahlilini yuritadi.

Kalit so'zlar:

Milliy iqtisodiyot, iqtisodiy o'sish, sun'iy intellekt, texnologik taraqqiyot, rivojlanish strategiyasi, raqamli infrastruktura.

Sun'iy intellekt zamonaviy jamiyatning rivojlanishida muhim o'rin tutuvchi omillardan biriga aylanib ulgurdi.

Bugun sun'iy intellekt to'g'risida turli soha vakillari fikr bildirayotganligini ko'rish mumkin. Bu bejiz emas, albatta. Sun'iy intellekt XXI asrning 20-yillariga kelib, navbatdagi yangi texnologiya bo'libgina qolmay, balki zamonaviy texnologik taraqqiyotning ajralmas qismiga aylanmoqda. Uning jamiyat hayoti barcha jabhalariga, iqtisodiyot, ta'lim, sog'liqni saqlash, boshqaruv tizimi va hatto insonlarning kundalik hayotiga ta'siri kundan-kunga oshib borayotganligi ko'zga tashlanadi.

Shu o'rinda ushbu texnologiya nafaqat innovasion o'zgarishlarning manbai, balki iqtisodiy o'sishning asosiy harakatlantiruvchi kuchiga aylanib borayotganligini ham ta'kidlab o'tmoqchi edik.

Mashhur xalqaro konsalting firmasi McKinsey hisob-kitoblariga ko'ra, sun'iy intellektning iqtisodiyotga ta'siri bundan buyon faqat oshib borishi va 2030 yilga borib, ushbu texnologiyaning jahon yalpi ichki mahsulotidagi ulushi 20 trillion AQSH dollariga yetishi kutilmoqda. Ushbu texnologiyani kim tezroq va kengroq o'z iqtisodiyotiga jalb qilsa,



o'sha davlat ko'proq manfaat ko'rishi, bu masalada sustkashlikka yo'l qo'yganlar esa ko'p narsa yo'qotishi yaqqol ko'rinib qolmoqda. Hozirning o'zida dunyoning ko'plab davlatlari o'rtasida mazkur sohada yangiliklar yaratish, uning yutuqlarini o'z iqtisodiyotiga joriy qilish borasida o'ziga xos poyga boshlanib ketgani ham fikrimiz tasdig'idir.

Shunday bir sharoitda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tashabbusi bilan mamlakatimizda sun'iy intellekt texnologiyalarini rivojlantirish masalalariga bag'ishlangan yig'ilish bo'lib o'tganligi davlatimiz rahbariyatining ushbu masalaga alohida e'tibor qaratayotganidan dalolat beradi. Ushbu uchrashuvda mamlakatimiz rahbari sun'iy intellektning bundan keyingi dunyo taraqqiyotiga, jamiyat taraqqiyotiga ta'siri xususida so'z yuritarkan, "Bugun insoniyat yangi sivilizatsiya bosqichiga – sun'iy intellekt davriga dadil qadam qo'yganligi"ni ta'kidlab o'tdi. Mana shu fikrning o'zida ushbu yangi texnologiya insoniyat taqdiriga qanchalik ta'sir ko'rsatishi mumkinligi lo'nda qilib bayon qilinganini anglash qiyin emas.

Yuqorida aytib o'tganimiz – dunyoning ko'plab davlatlari yangi texnologiyani joriy qilish borasida bir-biri bilan musobaqalashayotgan hozirgi davrda bu sohada bir qadam oldinda yurish ko'plab tizimli ishlarni amalga oshirishni talab qiladi.

Shu o'rinda bugungacha O'zbekistonda bu borada nimalar qilindi va yig'ilishda mamlakat rahbari yana qanday muammoli jihatlarga birlamchi e'tibor berish lozimligini ko'rsatib o'tdi, degan savol tug'ilishi tabiiy.

Dunyo hukumatlarining sun'iy intellektni joriy qilishga tayyorgarlik darajasini monitoring qiluvchi **Oxford Insights tashkiloti tahlillariga ko'ra O'zbekiston hukumati tomonidan bu borada shu kungacha bir qancha muhim qadamlar qo'yilgan.**

Xususan:

- sun'iy intellekt texnologiyalarini 2030 yilga qadar rivojlantirish strategiyasi qabul qilingan bo'lib, uning doirasida mazkur texnologiyalarni 2030 yilga qadar rivojlantirish bo'yicha erishish lozim bo'lgan maqsadli ko'rsatkichlar, sun'iy intellekt texnologiyalarini rivojlantirish bo'yicha ustuvor maqsad va vazifalar, ushbu texnologiyalarni joriy etish bo'yicha ustuvor yo'nalishlar va boshqalar aniq belgilab qo'yilgan;
- sun'iy intellektni turli sohalarga joriy qilish uchun zarur bo'lgan raqamli infrastrukturani joriy qilish borasida davlat darajasida tizimli ishlar amalga oshirilgan va oshirilmoqda.



O‘zbekiston Prezidentining shu yil 21 oktyabr kuni poytaxtning Mirzo Ulug‘bek tumanida joylashgan IT-parkka tashrifi chog‘ida namoyish etilgan yangi ishlanmalar bu borada yaratib berilgan imkoniyatlar, infrastruktura qanday natijalar berayotganligiga yaqqol dalil bo‘ldi. Jumladan, bugunga kelib IT-park rezidentlari soni 3 ming 200 kompaniyaga yetganligi, ularda 14 mingdan ortiq mutaxassis faoliyat yuritayotganligi, o‘tgan yili rezidentlar tomonidan 1 milliard 600 millionlik xizmatlar ko‘rsatilib, bu yil yakuniga ko‘ra ushbu ko‘rsatkich 2,5 milliard dollardan oshishi, eksport hajmi ilk bor 1 milliard dollarlik ko‘rsatkichdan oshishining kutilayotganligi bunga aniq misol bo‘la oladi.

Oxford Insights xulosalaridan shuningdek:

- O‘zbekistonda “GPU-klasterlari” va “data-markazlari”ni yaratish uchun katta investisiyalar jalb etilayotganligi;

- mamlakatda sohaga zarur bo‘lgan kadrlarni tayyorlash yo‘nalishida zarur ishlar amalga oshirilganligi, xususan, “Bir million dasturchi” kabi loyihalar o‘z natijasini berayotganligi;

- hukumat sun‘iy intellekt sohasida tashabbuskorlarning ishlanmalarini qo‘llab-quvvatlayotgani va boshqalar o‘rin olgan.

Amalga oshirilgan tizimli ishlar natijasida O‘zbekiston bir yilda sun‘iy intellektga tayyorgarlik bo‘yicha xalqaro indeksda, ya‘ni **Oxford Insights tashkilotining AI Readiness Index reytingida** 17 pog‘ona yuqoriladi. Bugungi kunda O‘zbekiston ushbu indeksda 188 ta davlat orasida 70-o‘ringa, Markaziy Osiyo davlatlari orasida esa 1-o‘ringa ko‘tarildi.

O‘zbekiston Prezidentining ushbu masalaga bag‘ishlab o‘tkazgan yig‘ilishida ilgari surilgan fikrlar tahlili mamlakatimizning erishilgan natijalar bilan cheklanmasdan, o‘z oldiga yangi maqsadlar qo‘yayotganligini ko‘rsatadi.

Ma‘lumki, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining o‘tgan yil oktyabr oyida qabul qilingan “Sun‘iy intellekt texnologiyalarini 2030 yilga qadar rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” gi qarorida sun‘iy intellekt asosida yaratilgan dasturiy mahsulotlar va ko‘rsatiladigan xizmatlar hajmini 1,5 milliard AQSH dollariga yetkazish vazifasi qo‘yilgan edi. Lekin qisqa vaqt ichida sohada erishilgan natijalar, mavjud imkoniyatlarning chuqur tahlili, qolaversa, xorijiy ekspertlar fikriga tayangan holda yig‘ilishda mamlakatimiz rahbari O‘zbekistonning bu boradagi salohiyati 10 milliard AQSH dollariga teng bo‘lishini ta‘kidladi.

Bu O‘zbekistonning mazkur sohadagi salohiyatiga xalqaro ekspretlar tomonidan



berilayotgan juda katta baho.

Xo'sh, gap nima haqda bormoqda? O'zbekistonning sun'iy intellekt sohasidagi salohiyatining 10 milliard AQSH dollari miqdorida baholanishi nimani anglatadi? Iqtisodchi sifatida aytish mumkinki, bu, avvalo mazkur sohaning mamlakat yalpi ichki mahsulotidagi ulushi yaqin va o'rta kelajakda juda yuqorilab borishidan darak beradi. Demak, aynan sun'iy intellektning samarali joriy qilina borishi natijasida mamlakat uchun yangi iqtisodiy o'sish imkoniyatlari yaratib beriladi. Bunga ushbu texnologiyalarni joriy qilish orqali mehnat samaradorligini keskin oshirish, ushbu texnologiyalarga asoslangan mutlaqo yangi sohalarni ishga tushirish, mavjudlarini optimallashtirishga erishish, IT sohasida ko'plab miqdorda yangi ish o'rinlari yaratish, sun'iy intellekt xizmatlari eksportini oshirish kabilar orqali erishiladi. Qishloq xo'jaligi sohasini avtomatlashtirish, logistika sohasini optimallashtirish, ishlab chiqarish, bank-moliya sohasiga mutlaqo yangi yondashuvlarni olib kirish, startaplar ekotizimining kengayib borishi va sun'iy intellekt yaratib berayotgan ko'plab yangi imkoniyatlar sohalarni optimallashtirishga xizmat qiladi. Qolaversa, ushbu texnologiyaning keng joriy qilinishi mamlakat iqtisodiyotini yanada chuqurroq diversifikatsiya qilishga, yangi, yuqori qo'shimcha daromadli iqtisodiy manbalarning shakllanishiga turtki beradi.

Mana shu sanab o'tilgan yo'nalishlarning o'ziyoq sun'iy intellekt ta'sirida iqtisodiyotning qiyofasi qanchalik o'zgarib borishini ko'rsatadi.

Bir so'z bilan aytganda, mazkur texnologiyaning keng joriy qilish mamlakatimiz iqtisodining yanada yuksalishi uchun o'ziga xos kuchli drayver vazifasini bajarishi aniq.

O'z navbatida, bu boradagi yangilanishlarni chet el investorlari uchun ham o'ziga xos signal bo'ladi. Chunki, O'zbekistonda o'tgan qisqa davrda bu sohada amalga oshirilgan ishlar va qo'lga kiritilgan natijalar mamlakatning salohiyatini aniq ko'rsatib qo'ydi. O'zbekistondagi bu sohaga e'tibor va yaratilayotgan yangi imkoniyatlar mamlakatni investorlar uchun jozibadorligini oshirishi tayin. Shunday bir vaziyatda kim ertaroq ushbu imkoniyatlardan foydalanib, o'z sarmoyalarini kiritsa, albatta o'sha yutadi, degan signalni barcha potensial investorlar allaqachon anglab olishganiga shubha yo'q. Ayniqsa, O'zbekiston Prezidenti tomonidan sun'iy intellekt infratuzilmasiga 100 million dollardan ko'p sarmoya kiritgan investorlarga energiya narxining 5 syent etib belgilanishi, IT-park imtiyozlari tadbiq etilishi, import uskunalarning bojxona to'lovlaridan ozod qilinishi borasidagi tashabbuslar sohaga investisiya qilishning jozibadorligini keskin oshirishi aniq.

Bulardan tashqari O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev o'z chiqishida sohani rivojlantirish uchun endilikda amalga oshirilishi lozim bo'lgan va



birlamchi e'tibor qaratish zarur bo'lgan yo'nalishlarni aniq belgilab berdi.

Xususan, mamlakatimiz rahbari dunyoda sun'iy intellektga talab ortib borayotgan hozirgi davrda raqobatbardosh bo'lish uchun 3 ta eng asosiy masala – infratuzilma, ochiq ma'lumotlar va kadrlar tayyorlashga e'tibor ekanligini ko'rsatib o'tdi va ushbu yo'nalishlarning har biri bo'yicha qilinadigan aniq vazifalar ko'lamini belgilab berdi.

Albatta, mamlakatimizning yaqin kelajakdagi qiyofasini shakllantiradigan ushbu muhim vazifalarni bajarish faqatgina davlatning ishi bo'lib qolmasligi kerak. Davlat bilan bir qatorda chet ellik hamkorlar, qolaversa, biznesning faol ishtiroki bu borada hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

Davlat-xususiy sherikchiligi asosida mamlakatimiz keyingi yillarda barcha yo'nalishlarda katta yutuqlarga erishdi. O'ylaymizki, nafaqat iqtisodiyotimiz, balki, umuman, davlatimizning har tomonlama rivoji uchun strategik ahamiyatga ega bo'lgan ushbu yo'nalishda ham mana shunday hamkorlik o'zining samaralarini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga Murojaatnomasi. 26.12.2025// <https://president.uz/uz/lists/view/8834>.
2. Sun'iy intellekt texnologiyalarini joriy qilish yangi bosqichga olib chiqiladi// <https://president.uz/oz/lists/view/8582>.
3. Sun'iy intellektni joriy etishni jadallashtirishga qaratilgan loyihalar bilan tanishildi// <https://president.uz/oz/lists/view/8583>.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Sun'iy intellekt texnologiyalarini 2030 yilga qadar rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Qarori, 2024 yil 14 oktyabr, PQ-358-son// <https://lex.uz/docs/7158604>.
5. The economic potential of AI: The next productivity frontier// <https://mckinsey.com/capabilities/tech-and-ai/our-insights/the-economic-potential-of-generative-ai-the-next-productivity-frontier>.
6. Government AI Readiness index 2025 // <https://oxfordinsights.com/ai-readiness/government-ai-readiness-index-2025>.
7. Krasova Ye.V. Razvitiye ekonomiki v kontekste vzaimosvyazi texnologiy, kapitala, cheloveka i obshchestva// Obshchestvennyye nauki i sovremennost. 2024. № 3. S. 21–35.